



MAMLAKATIMIZ INVESTITSIYA MUHITIGA MOLIYA BOZORI TA'SIRINING TAHLILI

Amonov Akram Mirzayevich

Toshkent moliya instituti

Buriboeva Zamiraxon Ravshan qizi

Toshkent moliya instituti

Annotasiya: *Maqolada mamalakatimizda investitsiya muhiti va unga moliya bozирining ta'siri bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, mamalakatimizda moliya bozирining joriy holati tahlil qilingan. Jumladan, aksiyalar bozori korparativ obligasiyalar bozирining hududlar kesimida harakati statistik ma'lumotlar asosida tahlili amalga oshirilgan. Mamlakatimizda investitsiya muhitida moliya bozирining ijobiy o'rni ochib berish bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so'zlar. *Investitsiya muhiti, moliya bozori, aksiya, obligasiya, aksiyadorlik jamiyati, qimmatli qog'oz.*

ANALYSIS OF THE IMPACT OF THE FINANCIAL MARKET ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT OF OUR COUNTRY

Amonov Akram Mirzayevich

Tashkent institute of finance

Buriboeva Zamiraxon Ravshan kizi


Tashkent institute of finance

Annotation: *The article examines the views of the world's leading scientists on the investment climate in our country and the impact of financial markets on it. The current state of the financial market in our country was also analyzed. In particular, the stock market was analyzed on the basis of statistical data on the movement of the corporate bond market by regions. Substantiated conclusions and proposals have been developed to reveal the positive role of the financial market in the investment climate in our country, as well as recommendations for its application in our country.*

Keywords: *Investment climate, financial market, stocks, bonds, joint stock companies, securities.*

Kirish

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish darajasi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadning yuqoriligi bilan bog'liq eng muhim ko'rsatkichlar, jumladan, (fond bozorida





muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar turlarining ko'pligi va likvidlilikning yuqoriligi, aksiyadorlik jamiyat (AJ)larida yuqori dividend siyosati, birja savdo tizimlarining takomillashganligi) fond bozorining yuqori darajada rivojlanganligi, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori kapitalizatsiyasining yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmiga nisbatan ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi. «Fond bozori savdo aylanmasi YAIM hajmiga nisbatan xorijiy mamlakatlardan Gonkongda 1200 foizni, Singapurda 188 foizni, AQSHda 149 foizni, Yaponiyada 127 foizni, Malayziyada 112 foizni, Janubiy Koreyada 87 foizni, Xitoyda 46 foizni, Rossiyada 34 foizni, Qozog'istonda 22 foizni, Turkiyada 19 foizni, global ko'rsatkich esa 93 foizni tashkil etadi»[1]. Jahon mamlakatlarida fond bozorlari turli darajada rivojlangan bo'lib, makroiqtisodiy rejalar ishlab chiqish va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda, jumladan, xorijiy kapital oqimlari va aholi jamg'arma mablag'larini fond bozori orqali jalb qilishda muhim vositalardan biri bo'lib qolmoqda.


Moliyaviy globallashtirish sharoitida fond bozorini xalqaro miqyosda rivojlantirish, investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan masalalarning echimiga erishish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari asosida fond bozorining milliy va xalqaro tizimlarini rivojlantirishga urg'u berilmoqda hamda uzluksiz ravishda takomillashtirilmoqda. Jahon miqyosida rivojlangan mamlakatlarda «qimmatli qog'ozlar bozori aylanmasi so'nggi yillarda YAIM hajmiga nisbatan 100-200 foizni tashkil etgan holda, 2020 yildan keyin esa 300 foizgacha etishi bashorat qilinmoqda»[2]. Ammo, yirik kompaniyalarning aksiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushining yuqoriligi, fond bozori orqali investitsiya jalb etishni takomillashtirish, moliyaviy instrumentlar likvidligini oshirish, jahon kapital bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash orqali moliyaviy resurslar jalb qilishni kengaytirish, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy adabiyotlarda investitsion muhit terminiga juda ko'p tushunchalar berilgan. Jumladan, Xorijiy iqtisodchi olimlardan Glagoleva va Beloguralarning fikricha, "mamlakat yoki mintaqaning investitsion muhiti moliyaviy qo'yilmalar jozibadorligi ma'lum darajasini belgilovchi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda davlatni huquqiy sharoitlari tavsifini birgalikda umumlashtirilganidir"[3].

Jiyun Cao hamda Arijit Mukherjee o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida so'nggi yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar xalqaro savdoda ustunlikka ega bo'laётganini ko'rsatib berishgan. SHuningdek kasaba uyushmalarining mavjudligi sababli mehnat bozori kamchiliklarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun rag'batlantirishi mumkinligini va mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini[4] ilmiy asoslab berishgan.

S.V. Zenchenko, M.A.Shemètkin o'z tadqiqotida investorlarning xohishiga ko'proq ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillarni ajratib ko'rsatishadi. Xususan,






mamlakat/hududning investitsion salohiyatini baholash uchun eng muhim omillardan quyidagilarni keltirishadi: resursli – xom ashèviy (tabiiy resurslar asosiy turlarining o'rtacha o'lchangan ta'minoti); ishlab chiqarish (hududdagi xo'jaliklar faoliyatining umumiy natijasi); iste'mol (hudud aholisining xarid qilish qobiliyati); infratuzilmaviy (hududning iqtisodiy-geografik holati va uning infratuzilmaviy ta'minlanganligi); intellektual (aholining ma'lumot darajasi); institutsional (bozor iqtisodiètiga asoslangan etakchi institutlarning rivojlanganlik darajasi); innovatsion (hududda ilmiytexnika taraqqièti yutuqlarini tatbiq etish darajasi). Shuni ta'kidlash kerakki, investitsion salohiyat hududlarni tasniflash mezonlaridan biri[5] hisoblanadi.

B.Rayzberg, L.Lofovskiy, E.Starodubsevalarning fikriga ko'ra: "investitsiya muhiti - bu mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan ichki va tashqi investitsiyalar oqimiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy shart-sharoitlardir"[6].

B.B.Rubsov shunday yozadi: "Moliya bozori - bu iqtisodiy munosabatlar va pul kapitalining harakati bilan bog'liq institutlarning yig'indisi"[7]. Moliya bozorida pul kapitalining harakati qiymati bozor sharoitlari bilan belgilanadigan vositalar yordamida sodir bo'lganligi sababli, kapital bozorining xususiyatlari moliya bozoriga xosdir. Kapital bozori va moliyaviy bozor iqtisodiy munosabatlar sub'ektlarini afzal ko'radi. Ushbu bozorlarda iqtisodiy agentlar uchun imtiyozlar turli xil vositalardir.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Vahabov, Sh.Xajibakiev, N.Mo'minovlar investitsiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: "Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, sièsiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'pqirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siè sati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyasiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega". Shuningdek, mamlakatdagi investitsiya jaraènlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui investitsiya muhitini anglatadi. "Investitsiya muhiti" va "investitsiya iqlimi" sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi[8]. Bu xususda iqtisodchi olimlardan D.G'ozibekov va T.Qoralievlar tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: "Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siè sati, iqtisodièti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi"[9]. Qulay investitsiya muhitini yaratishning muhim jihatlaridan biri huquqiy-me'èriy baza bo'lib, u har bir salohiyatli investorning mulkiy manfaatlarini himoyalashi, kafolatlashi va, shuningdek, mamlakatdagi mavjud investitsiya mexanizmining tushunarli va aniq





bo'lishini ta'minlashi lozim.

Ko'rib chiqilgan uslubiyatlarning aksariyati tor qo'llanish sohasiga ega bo'lib, ularda ko'pincha tarmoqlar hisobga olinmaydi. Shu bois, investorlar investitsion jozibadorlikni baholash bo'yicha tahliliy dastaklarga ega bo'lmagani tufayli, u to'g'risida sub'ektiv tasavvur asosida qarorlar qabul qilishga majbur bo'lishadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekistonda investitsiya muhitiga moliya bozorining ta'srini o'rganish bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatning kompleks rivojlanishini ta'minlash va investitsion muhit jozibadorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni olib borishda, eng avvalo, mamlakat va uning hududlari salohiyatini tadqiq qilish, ularni baholash, ta'sir ko'rsatadigan omillarni tasniflash, o'zaro bog'liqlik kasb etgan jihatlarni iqtisodiy-matematik va ekonometrik usullar orqali ochib berish, ta'kidlanganidek, mazkur tadqiqotning vazifalaridan hisoblanadi.

Buning uchun esa, rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilgan va yuqori natijalar keltirgan tajribalarni tahlil etish, muvaffaqiyatga olib kelgan usul va uslublar, omillarni O'zbekiston va uning hududlari miqyosida tatbiq etish bo'yicha ilmiy-uslubiy hamda nazariy-amaliy taklif, tavsiyalarni ishlab chiqish muhimdir. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich, uning investitsion jozibadorligi hisoblanadi. Iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori, uning dinamikasi mamlakatdagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilovchi asosiy omil sifatida investitsiya resurslari manbalarini shakllantirish va uning barqarorligini hududiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etish mumkin.


Investitsiyalar hudud rivojlanishidagi asosiy omil sifatida qaralishini inobatga olganda, hududlarda investitsion muhitni shakllantirish, investitsion jozibadorlikni oshirishda samarali marketing strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida berilgan vazifalarning bajarilish holatini tahlili qilish maqsadida, 1-rasmda aksiyadorlik jamiyatlarning sonidagi o'zgarishlardan ko'rish mumkin.




1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari sonining o'zgarishi (sonda)[10]

O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi shaklan va mazmunan xalqaro standartlar talablariga moslashib bormoqda. Bu



borada korporativ boshqaruv tizimini chuqur isloh qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari qabul qilinib, ijrosi ta'minlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720 sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonidan kelib chiqib aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati takomillashtirilib kelinmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari soni 2017 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 2021 yilning 1 may oyiga 659 tadan 595 taga yoki 10 % ga kamaytirilgan.

Shuningdek yuqorida berilgan vazifalarning bajarilish holatini tahlili qilish maqsadida, 2-rasmda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarning umumiy hajmi bo'yicha yildan-yilga o'zgarishlari keltirilgan.



2-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan emissiya qilingan aksiyalarning umumiy hajmi dinamikasi (mlrd so'm)[10]

2-rasmdagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, so'nggi 4 yil va 2020 yilning iyul oyi davomida aksiyalarning hajmi ko'payib kelmoqda. 2017-2021 yillar davomida o'zidan oldingi yilga nisbatan o'rtacha 45 foizga aksiyalarning so'mdagi hajmi ortgan, ayniqsa 2020 yilning 6 oy hisobi bo'yicha 2019 yilga nisbatan 57 foizga ortganligini ko'rish mumkin.

2020 yil birinchi yanvar oyi holatiga Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida 593 ta aksiyadorlik jamiyatining 99,20 trln. so'm nominal qiymatga ega qimmatli qog'ozlari chiqarilishi hisobi yuritilgan. Oldingi yilga nisbatan aksiyadorlik jamiyatlari soni 10 taga kamaygan bo'lsada, qimmatli qog'ozlar chiqarilishi hajmi 39,77 trln. so'mga ortgan.

2020 yil birinchi yanvar oyi holatiga Markaziy depozitariyda 488,06 mlrd. so'mlik 785,6 ming dona korporativ obligatsiyalar hisobi yuritilgan. Ularning 438,06 mlrd. so'mlik umumiy miqdorga ega 735,6 ming donasi 5 ta tijorat banklari tomonidan chiqarilgan.

2020 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, umumiy 593 ta aksiyadorlik jamiyatlaridan 257 tasida davlat ulushi 74,55 trln. so'mni tashkil etgan, shu jumladan, Markaziy depozitariyda 238 ta aksiyadorlik jamiyatining ustav fondida 74,51 trln. so'mlik aksiya ko'rinishidagi davlat ulushi hisobi yuritilmoqda. Ushbu aksiyadorlik jamiyatlarida davlat boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat unitar korxonalar, davlat muassasalari, Markaziy bank hamda O'zbekiston tiklanish





va taraqqiyot jamg'armasi aksiyador hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida asosan aksiya va obligatsiyalar bo'yicha tajriba mavjud bo'lib, ushbu emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning iqtisodiyotning faoliyat sektorlaridagi miqdori bo'yicha quyidagi jadvalda ma'lumotlar aks ettirilgan.

1-jadval

Aksiyalar bo'yicha emitentlar soni va chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning hajmi to'g'risidagi ma'lumot (25.06.2021 holatiga)[10]

| Aksiyalar | | | | |
|-----------|------------------------------|------------------------------|------------------------------------|-------------------------|
| No | Iqtisodiy faoliyat sohasi | Aksiyadorlik jamiyatlar soni | Chiqarilishlar hajmi (mlrd dollar) | Aksiya (dona) |
| | Jami | 600 | 143157,07 | 124968 85,36 |
| 1 | Sanoat | 150 | 68023,47 | 2 710 80 9,34 |
| 2 | Qishloq xo'jaligi | 198 | 6313,21 | 3 122 89 2,07 |
| 3 | Xizmatlar | 173 | 19 902,11 | 191 362, 78 |
| 4 | Shu jumladan, moliya sektori | 79 | 48918,28 | 6 471821,19 |

1-jadvaldan kuzatishimiz mumkinki 2021 yilning 23 iyun holatiga 600 ta aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan jami 143,15 trln. so'm miqdordagi 12,49 trln. dona aksiyalar hisobi yuritilmoqda. Aksiyalarning umumiy portfelidagi ulushlar: davlat - 82,3 foiz, xo'jalik boshqaruvi organlari - 4,2 foiz, boshqa aksiyadorlar - 7,6 foiz, joylashtirish jarayonidagi aksiyalar - 5,9 foizni tashkil etadi.


Xo'jalik boshqaruvi organlarining 205 ta aksiyadorlik jamiyati ustav fondidagi ulushlari 5,93 trln. so'mni tashkil etdi. Hisobot davrida xo'jalik boshqaruvi organlari aktivlarining hajmi 90,3 mlrd. so'mga oshdi[12].

So'nggi yillarda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan korporativ obligatsiyalar amaliyotga asosan iqtisodiyotning moliyaviy sektorida qo'llanilib kelinmoqda. Navbatdagi jadvaldan «Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasi hisobi yuritilayotgan korporativ obligatsiyalar soni va tarmoqlar bo'yicha ulushni ko'rish mumkin(2-jadval).

2-jadval

Korporativ obligatsiyalar emitentlar soni va chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning hajmi to'g'risidagi ma'lumot (26.06.2021 holatiga)[10]

| Korporativ obligatsiyalar | | | |
|---------------------------|------------|----------------------------------|---------------------|
| No | Emitentlar | Chiqarilishlar hajmi (mlrd.so'm) | Obligatsiyalar soni |
| | | | |






| | | | (mln.dona) |
|----|---|---------------|-------------------|
| | Banklar | 155,18 | 0,25 |
| . | Boshqa emitentlar | 428,13 | 0,091 |
| .1 | <i>O'zavtosanoat AK</i> | <i>50,0</i> | <i>0,05</i> |
| .2 | <i>Boshqa mas'uliyati cheklangan jamiyatlar</i> | <i>378,13</i> | <i>0,045</i> |
| | Jami | 583,30 | 0,341 |

Korporativ obligatsiyalar bo'yicha umumiy hajmning 26,6 foiz, jami sonining esa 73,3 foiz tijorat banklari hisobida to'g'ri kelyapti. Korporativ obligatsiyalar emissiyasi umumiy hajmining 8,5 foizi, jami sonining esa 14,6 foizi real sektorning faol ishtirokchisi sifatida "O'zavtosanoat" AKga to'g'ri kelmoqda. Boshqa mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga korporativ obligatsiyalar emissiyasi umumiy hajmining 64,8 foiz, jami sonining esa 13,2 foizga to'g'ri keladi.

Qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasi — emitent va u chiqaradigan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek investorning qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjatlar hisoblanadi.





3-jadval

Hududlar kesimida aksiyadorlik jamiyatlar soni va chiqarilgan aksiyalarning hajmi haqida ma'lumot (25.06.2021 yil holatiga)[11]

| | Hududlar kesimida | Aksiyadorlik jamiyat soni | Aksiyalar miqdori (mlrd.so'm) |
|----|--------------------------------------|---------------------------|-------------------------------|
| . | Toshkent shahri | 217 | 132 043,60 |
| . | Navoiy viloyati | 19 | 2 477,20 |
| . | Farg'ona viloyati | 44 | 1 267,32 |
| . | Toshkent viloyati | 50 | 1 974,20 |
| . | Qashqadaryo viloyati | 43 | 2 811,41 |
| . | Andijon viloyati | 36 | 783,20 |
| . | Jizzax viloyati | 17 | 341,56 |
| . | Sirdaryo viloyati | 17 | 211,68 |
| . | Buxoro viloyati | 35 | 205,67 |
| 0. | Xorazm viloyati | 29 | 210,64 |
| 1. | Namangan viloyati | 21 | 177,97 |
| 2. | Samarqand viloyati | 30 | 407,75 |
| 3. | Surxondaryo viloyati | 22 | 154,43 |
| 4. | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 20 | 90,44 |
| | Jami aksiyadorlik jamiyatlari | 600 | 143 157,07 |

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hududlar kesimida jami aksiyadorlik jamiyatlari 600 tani tashkil qilgan shundan, eng yuqori ulush Toshkent shahri 35,2 foizni tashkil qilgan. Qolgan hududlar ulushi esa 9 foizga ham etmagan, misol uchun Toshkent viloyati 8,3 foiz, Farg'ona viloyati 7,3 foiz, Qashqadaryo viloyati 7,2 foiz va hokazo bo'lgan. Emissiya qilingan aksiyalar miqdori bo'yicha ham, eng yuqori ulush Toshkent shahri aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan hamda 92,2 foizni tashkil qilgan. Qolgan hududlar esa bor yo'g'i 7,8 foiz ulushga ega. Respublikamizdagi er resurslari boyligi, tog'-kon, metallurgiya va boshqa og'ir sanoat bo'yicha etarli darajada resurslarga boy ekanligi, shuningdek xalqaro darajada resurslarni qayta ishlashga, real sektorning xizmatlar sohalari





bo'yicha talabning ortib borayotganligini hisobga olgan holda, hududlardagi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish kerakligini bildiradi.

Markazlarda asosiy bilimlar va innovatsiyalarning to'plangani, ishlab chiqarish kuchlarining qulay joylashuvi, yuqori infrastruktura ob'ektlarining mavjudligi aksariyat holda ushbu hududlarda investitsiyalar oqimining ham yuqori bo'lishligini ta'minlaydi. Va aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy qashshoq va ekologik jihatdan nobop hududlarda ijtimoiy keskinlikning kuchayishi, har xil turdagi jinoyatlarning avj olishi, diniy va hatto siyosiy to'qnashuvlarning yuz berishi kuzatiladi. Aksariyat sarmoyadorlar esa bunday hududlarga investitsiya yo'naltirishga tavakkal qilmaydilar. Ushbu salbiy holatlarning yuzaga kelishini bartaraf etish, ularning oldini olish uchun davlat tomonidan mintaqaviy-hududiy siyosat olib boriladi.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, bunda moliya bozorlari muhim o'rin tutadi. Moliya bozorlarining iqtisodiyotda tutgan o'rnini oshirish bevosita ularning faoliyatini erkinlashtirishni, unda bozor qonuniyatlarining amal qilishini va unga ta'sir etuvchi omillarni mukammal o'rganishni talab qiladi. Shu sababli, tanlangan mavzu birinchidan, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan murakkabligi bo'lsa, ikkinchidan, respublikada amalga oshirilayotgan ko'pdan-ko'p yangi muammolar bilan chambarchas bog'liqligi, uchinchidan xilma-xil statistik ma'lumotlarni tahlil qilib ilmiy xulosalar chiqarishni talab qilishidir.

O'zbekistonda investitsiya muhitini takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: so'mning qadrini ko'tarish; islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini hisobga olgan holda soliq tizimini ilmiy asoslangan holda takomillashtirish; ma'muriy buyruqbozlik holatlariga chek qo'yish; O'zbekistondagi aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyasini nufuzini va uning likvidligini oshirish, xorijiy investorlarni ularga jalb eta bilish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish.

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida tijorat banklari o'rtasida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq investitsion operatsiyalar ko'lamini oshirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR/LITERATURA/REFERENCE:

1. Jahon birjalari federatsiyasi ma'lumotlari (2019). <http://www.world-exchanges.org>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga b ag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.:«Ma'naviyat», 2018. 189-b.

3. П.Глаголев, С.Белогур Инвестиционные просторы России //





Российский инвестиционный вестник. № 3. с 15. / Glagolev P., Belogur S. (1997)
Investment spaces of Russia // Russian investment bulletin. No. 3. p. 15.

4. Jiyun Cao, Arijit Mukherjee Foreign direct investment, unionised labour markets and welfare International Review of Economics & Finance Volume 58, November 2018, Pages 330-339 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S105905601730878X>

5. Зенченко С.В., Шемёткина М.А. «Инвестиционный потенциал региона». Сборник научных трудов Сев.Кав.ГТУ. Серия «Экономика». №6. 2007 г.153-с.

6. М.Бродский, С.Костенко Инвестиции как источник конкурентоспособности // Ученые записки Института права. Петербургского государственного университета А.А.Ливревского. 2001 Вып. С.95.

7. Рубцов Б.Б. Глобальные финансовые рынки: масштабы, структура, регулирование // Век глобализации. - №2 (8). - 2011. - С.73-98.

8. А.В.Ваҳобов, Ш.Х.Хажикабиев, Н.Г.Мўминов Хорижий инвестициялар. Тошкент: "Молия". 346-б

9. D.G'.G'ozibekov, T.M. Qoraliyev Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. Toshkent: "Iqtisod-moliya". 2011 232-b.

10. «Қимматли қоғозлар марказий депозитарийси» давлат корхонасининг расмий сайти маълумотлари. <http://www.deponet.uz>

11. http://www.deponet.uz/sites/default/files/o_sayt_uz_13_03_2020.pdf

12. <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/70292-464-turdagi-qimmatli-qogozlarga-isin-va-cfi-xalqaro-kodlari-brildi>

